

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 91 333,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 109,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3 % ga yetdi.

2024- yil uchun Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



106,8 %

91 333,0 mlrd so'm

109,7 %

6,3 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	78 009,0	91 333,0	106,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	76 388,3	89 587,4	106,7
mahsulotlarga sof soliqlar	1 620,7	1 745,6	107,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	76 388,3	89 587,4	106,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22 665,4	25 223,6	104,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	20 613,3	24 304,3	107,9
sanoat	14 768,1	17 731,3	107,6
qurilish	5 845,2	6 573,0	108,5
xizmatlar	33 109,6	40 059,5	107,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 472,3	15 324,7	111,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 417,4	5 532,9	110,1
boshqa xizmat tarmoqlari	16 219,9	19 201,9	103,7



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 22 259,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,6 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	98,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	1,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,7	28,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,0	27,1
sanoat	19,3	19,8
qurilish	7,7	7,3
xizmatlar	43,3	44,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,3	17,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,8	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	21,2	21,4




2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,9 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 28,2 %ni, sanoat tarmog‘i 19,8 % ni, qurilish 7,3 % ni va xizmatlar sohasi 44,7 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,4 f.p. (2023- yilda – 1,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,4 f.p. (2023- yilda – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,6 f.p. (2023- yilda – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,2 f.p. (2023- yilda – 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)





2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,2 %), sanoatda –107,6 % (19,8 %), qurilishda – 108,5 % (7,3 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (44,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,0 % (17,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,1 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,7 % dan (21,4 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 109,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 112,7 % va sanoatda – 111,5 % qayd etildi.

2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 65 543,2 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 55 174,1 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 73,2 % ni (2023- yilda - 72,2%) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

Hajmi, mlrd so‘m

Ulushi, % da

2023- yil

55 174,1

72,2 %

2024- yil

65 543,2

73,2 %

